

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY FIKRLASHINI  
RIVOJLANTIRISH ORQALI KOGNITIV MOSLASHUVCHANLIKNI OSHIRISH  
METODLARI**

**МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ КОГНИТИВНОЙ АДАПТИВНОСТИ ЧЕРЕЗ  
РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**METHODS OF IMPROVING COGNITIVE ADAPTATION THROUGH THE  
DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS**

**Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna**

*Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent zn.ortiqova@gmail.com*

**Mirzakarimova Anoraxon Ashurali qizi**

*Farg'ona davlat universiteti magistranti anoraxonmirzakarimova@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlashini rivojlantirish orqali ularning kognitiv moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiluvchi metodlar tizimi keng yoritilgan. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ta'lim jarayonida noodatiy yechimlar topish, vaziyatga moslasha olish, tahliliy fikrlash kabi malakalarga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotgani bilan izohlanadi. Maqolada ijodiy fikrlashni faollashtirishga qaratilgan pedagogik metodlar, divergent fikrlash mashqlari, muammoli vaziyatlar asosida o'qitish, rolli o'yinlar va lateral fikrlash elementlarining kognitiv moslashuvchanlikka ta'siri ilmiy asoslangan holda bayon qilinadi. Natijalar ijodiy faoliyatni muntazam qo'llash boshlang'ich sinf o'quvchilarida moslashuvchan fikrlash darajasini sezilarli oshirishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** ijodiy fikrlash, kognitiv moslashuvchanlik, divergent metodlar, boshlang'ich ta'lim, lateral fikrlash, muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar, bilish jarayonlari, noodatiy yechimlar, intektektual rivojlanish.

**Аннотация:** В данной статье широко освещена система методов, служащих повышению когнитивной адаптивности учащихся начальных классов путем развития их творческого мышления. Актуальность исследования объясняется растущей потребностью в таких навыках, как поиск необычных решений, адаптация к ситуации, аналитическое мышление в современном образовательном процессе. В статье научно обосновано влияние педагогических методов, направленных на активизацию творческого мышления, дивергентных мыслительных упражнений, обучения на основе проблемных ситуаций, ролевых игр и элементов латерального мышления на когнитивную адаптивность. Результаты показывают, что регулярное применение творческой деятельности значительно повышает уровень гибкого мышления у учащихся начальных классов.

**Ключевые слова:** творческое мышление, когнитивная гибкость, дивергентные методы, начальное образование, латеральное мышление, проблемные ситуации, творческие задания, познавательные процессы, необычные решения, интеллектуальное развитие.

**Annotation:** *This article extensively covers the system of methods that serve to increase the cognitive adaptability of primary school students by developing their creative thinking. The relevance of the research is explained by the growing need for skills such as finding unusual solutions, adapting to the situation, and analytical thinking in the modern educational process. The article scientifically substantiates the influence of pedagogical methods aimed at activating creative thinking, divergent thinking exercises, problem-based learning, role-playing games, and elements of lateral thinking on cognitive adaptability. The results show that the regular use of creative activity significantly increases the level of adaptive thinking in primary school students.*

**Keywords:** *creative thinking, cognitive flexibility, divergent methods, primary education, lateral thinking, problem situations, creative tasks, cognitive processes, unusual solutions, intellectual development.*

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilardan mustaqil fikrlash, noodatiy yondashuvlar ishlab chiqish, murakkab vaziyatlarda tez qaror qabul qilish va yangi sharoitlarga moslasha olish kabi sifatlarini talab qilmoqda. Ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida kognitiv jarayonlar faol shakllanadi va bu davr ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun eng sezgir davr hisoblanadi.

Ijodiy fikrlash – bu nafaqat g'oya yaratish, balki mavjud bilimlarni transformatsiya qilish, ulardan yangi kombinatsiyalar hosil qilish, muammolarni noodadiy usulda hal qilish qobiliyatidir. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali o'quvchilarda kognitiv moslashuvchanlik, ya'ni vaziyatga mos ravishda fikrlash strategiyasini o'zgartirish, alternativ yechimlar ishlab chiqish, intellektual barqarorlikka ega bo'lish qobiliyati shakllanadi.

Ta'lim sifati aynan shu sifatlarining shakllanishiga bevosita bog'liq bo'lgani uchun mazkur tadqiqotda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning samarali metodlari o'rganiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ijodiy fikrlash va moslashuvchanlik masalasi turli ilmiy yo'nalishlarda keng tadqiq qilingan. J.Guilford kreativlikni divergent fikrlash orqalibaholashni taklif qilgan bo'lib, fikrlar ko'pligi, fleksibil fikrlash va noodatiy yondashuvni kreativlikning asosiy mezonlari sifatida belgilangan.

D.Torrance ijodiy fikrlashni pedagogik jarayonda rivojlantirishga qaratilgan testlar tizimini yaratgan. Uning tadqiqotlari yosh o'quvchilarda kreativ jarayonlarni shakllantirish imkoniyatining yuqoriligini ko'rsatadi.

E.de Bono lateral fikrlash nazariyasida noodatiy fikrlashni rivojlantirishning amaliy metodlarini taklif qilgan bo'lib, ushbu metodlar kichik yoshdagi bolalarda juda samarali natija beradi.

Mahalliy olimlar Sh.Qodirova, T.Rahmonqulova, X.Tojiyev boshlang'ich ta'limda ijodiy metodlar, muammoli vaziyatlar, o'quv loyihalari, vizual materiallar qo'llanilishi kognitiv rivojlanishni sezilarli faollashtiradi degan xulosaga kelishgan.

Tadqiqotda Farg'ona shahar "Ideal orzular" maktabi 2-sinf o'quvchilarining 48 nafari ishtirok etdi. 24 nafari tajriba guruhi, 24 nafari nazorat guruhi deb olindi. Tadqiqot 8 hafta davom etdi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: divergent fikrlash mashqlari, lateral fikrlash elementlari ( "6 thinking hats"), muammoli vaziyatlar asosida o'qitish, ijodiy hikoya tuzish, rolli o'yinlar, vizual modellashtirish.

Diagnostika vositalari:

- Torrance creativity Thinking Test (TTCT);
- kognitiv moslashuvchanlik baholash varaqasi;
- o'qituvchilar bilan suhbat;
- kuzatishlar.

#### TAHLIL VA NATIJALAR

1. Dastlabki diagnostika. Eksperiment oldidan guruhlar o'rtasida sezilarli farq qayd etilmadi. ( $p > 0.05$ )

2. 8 hafta yakunidagi o'zgarishlar quyidagicha:

| T/r | Ko'rsatkich            | Nazorat guruhi | Tajriba guruhi | Farq |
|-----|------------------------|----------------|----------------|------|
| 1   | Moslashuvchanlik       | +4%            | +26%           | +22% |
| 2   | Noodatiylik            | +3%            | +22%           | +19% |
| 3   | G'oyalar tezligi       | +6%            | +31%           | +25% |
| 4   | Muammo yechish tezligi | +5%            | +28%           | +23% |

3. Psixologik kuzatish natijalari. Tajriba guruhi o'quvchilarda o'ziga ishonch oshdi, topshiriqlarni tanlashda mustaqillik kuchaydi, xatolardan qo'rqmaslik paydo bo'ldi, dars jarayonida faollik oshdi, jamoaviy ishlash ko'nikmasi yaxshilandi.

4. Sifat ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar. Eksperiment guruhidagi o'quvchilarda alternativ yechimlar taklif qilish soni 2,7 barobar ko'paydi, topshiriqlarni bajarish vaqti o'rtacha 18% ga qisqardi, ijodiy g'oyalar soni 3,1 barobarga oshdi.

#### XULOSA

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ijodiy fikrlashni rivojlantirish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kognitiv moslashuvchanligi uchun kuchli katalizator vazifasini bajaradi. Divergent mashqlar, muammoli vaziyatlar, lateral fikrlash, ijodiy loyihalar o'quvchining noodatiy yechim topish qobiliyatini, fikrlash moslashuvchanligini, tahliliy faoliyatini, o'qishga ichki motivatsiyasini sezilarli oshiradi.

1. Kognitiv darajada o'quvchining noodatiy fikrlar sonini oshirdi, vaziyatga tez moslashish qobiliyatini kuchaytirdi, tahliliy fikrlash jarayonini jadallashtirdi, intellektual moslashuvni 22-31% ga oshirdi.

2. Metakognitiv darajada o'quvchilar o'z fikrlash jarayonini ongli boshqara boshladi, strategiya o'zgartirish ko'nikmasi shakllandi, xatoni tahlil qilish madaniyati rivojlandi.

3. Emotsional-psixologik darajada o'ziga ishonch ortdi, stressga chidamlilik kuchaydi, ijodiy xavfsizlik muhitida faol fikr almashuvi yuzaga keldi.

4. Ijtimoiy darajada hamkorlikda ishlash ko'nikmalari yaxshilandi, muloqot sifati oshdi.

Ijodiy metodlar oddiy vositalar orqali o'quvchining fikrlash sifatini chuqur o'zgartiradi. Bu metodlar boshlang'ich ta'limning barcha fanlariga integratsiya qilinishi mumkin va ta'lim sifatini sezilarli ko'taradi.

Demak, ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali kognitiv moslashuvchanlikni oshirish – boshlang'ich ta'limning strategik ahamiyatga ega bo'lishdir.

Maqolada taklif etilgan metodika boshlang'ich ta'limda kreativlikni rivojlantirishning kompleks yondashuvi bo'lib, xalqaro kompetensiya talablari bilan to'liq mos keladi va amaliyotga joriy qilinishi mumkin.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Guilford, J.P. (1967). The nature of human intelligence (pp. 45-78). New York, NY:McGraw-Hill.

2. Torrance, E.P. (2015). Creativity development theory and practice (pp.112-149). London: Routledge.

3. De Bono, E. (2017). Lateral thinking: Creativity step by step (pp. 56-104). London:Penguin Books.

4. Luria, A.R. (2012). Higher cortical functions in man (pp.89-134). New York, NY:Springer.

5. Sawyer, R.K. (2011). Explaining creativity: The science of human innovation (pp. 203-241). Oxford:Oxford University Press.

6. Runco, M.A., Acar, S.(2012). Divergent thinking: Its role in creativity. Psychology of Aesthetics, Creativity, and the Arts, (pp. 284-299).

7. Qodirova, Sh., Tojiyev, X. (2021). Boshlang'ich ta'lim metodikasi (pp. 56-87). Toshkent:"Fan va ta'lim".

8. OECD. (2019). Future of education and skills 2030: OECD learning compass (pp. 12-45). Paris OECD Publishing.